SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-iyul | 294-7-106-Q/24 | Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi

Oltinchi chaqiriq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashining to‘qson to‘rtinchi sessiyasini chaqirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Oltinchi chaqiriq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashining to‘qson to‘rtinchi sessiyasi 2024-yil 2-avgust kuni soat 10:00 da chaqirilsin.

2. Xalq deputatlari shahar Kengashining to‘qson to‘rtinchi sessiyasi kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilishi inobatga olinsin:

- 2024-yilning o‘tgan 6 oyi davomida Xalq qabulxonasi, sektorlar va tashkilot rahbarlarining aholi murojaatlari va muammolari bilan ishlash faoliyati yuzasidan shahar Xalq qabulxonasi mudiri X.Shodievaning axboroti;

- 2024-yilning o‘tgan 6 oyi sektor rahbarlarining mahallarda sayyor qabullar o‘tkazish orqali aholi murojaatlari bilan ishlash faoliyati yuzasidan shahar Xalq qabulxonasi mudiri X.Shodievaning axboroti;

- Shahar hududida jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta’minlash borasida 2024-yilning 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Kattaqo‘rg‘on shahar ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari, jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i Sh. Dusanovning hisoboti;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmoni ijrosini ta’minlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Kattaqo‘rg‘on shahar bo‘limi boshlig‘i U.Tuyg‘unovning hisoboti;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-iyundagi “Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-222-sonli qarorning 3-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida Kattaqo‘rg‘on shahrida energiya resurslarini iqtisod qilishning maqsadli ko‘rsatkichlarini bajarilishi to‘g‘risida shahar elektr ta’minoti korxonasining boshlig‘i O.Tuxtaevning hisoboti;

- Shahar aholisini, ijtimoiy soha obektlari va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash to‘g‘risida;

- Kattaqo‘rg‘on shahar mahalliy byudjetining 2024-yil maqbullashtirilgan mablag‘larini chegirib olish va qayta yo‘naltirish to‘g‘risida;

- Shahar saylov komissiyalari a’zoligiga nomzodlarni tavsiya etish to‘g‘risida;

- Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashidagi deputatlik o‘rinlari sonini belgilash to‘g‘risida;

- boshqa masalalar.

3. Sessiyaga shahar Kengashi deputatlari, sektor rahbarlari, shahar hokimining o‘rinbosarlari, korxona va tashkilotlar rahbarlari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda tegishli mutasaddilar taklif etilsin.

4. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin.

Shahar hokimi v.v.b **I. Mamatov**